

**ALISHER NAVOIY G'AZALIDA ISHQNING BADIY-FALSAFIY TALQINI
("LABING TAKALLUM ETIB SO'ZDA LOL QILDI MENI" MISOLIDA)****ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЮБВИ В
ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВОИ (НА ПРИМЕРЕ «LABING TAKALLUM ETIB
SO'ZDA LOL QILDI MENI»)****THE ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF LOVE IN THE
GHAZALS OF ALISHER NAVOI (ON THE EXAMPLE OF "LABING TAKALLUM
ETIB SO'ZDA LOL QILDI MENI")****Mirzatillayeva Nargizaxon Salimjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti

o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051471>**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Labing takallum etib so'zda lol qildir meni" g'azalida ishqning badiiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. G'azal matni asosida yor go'zalligi va uning so'z orqali ifodalanishi lirik qahramonning hayrat va maftunlik holatiga sabab bo'lishi yoritiladi.

Аннотация

В данной статье анализируется художественно-философская сущность любви в газели Alisher Navoiy «Labing takallum etib so'zda lol qildir meni». На основе текста газели раскрывается, как красота возлюбленной и её выражение через слово вызывают у лирического героя состояние восхищения и очарования.

Abstract

This article analyzes the artistic and philosophical essence of love in the ghazal "Labing takallum etib so'zda lol qildir meni" by Alisher Navoiy. Based on the text of the ghazal, it is shown how the beauty of the beloved and its expression through speech cause a state of admiration and fascination in the lyrical hero.

Kalit so'zlar: g'azal, ishq, badiiy tahlil, falsafiy mazmun, lirik qahramon, yor timsoli**Ключевые слова:** газель, любовь, художественный анализ, философский смысл, лирический герой, красота возлюбленной,**Keywords:** ghazal, love, literary analysis, philosophical meaning, lyrical hero, beauty of the beloved**KIRISH**

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho'qqisini egallagan buyuk ijodkor, mutafakkir va davlat arbobi sifatida Sharq madaniyati tarixida beqiyos o'rin tutadi. Uning boy adabiy merosi, xususan g'azallari, nafaqat badiiy go'zalligi bilan, balki chuqur falsafiy, estetik va ma'naviy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Navoiy lirikasida inson qalbi, uning ichki kechinmalari, ishqiy tuyg'ular va ruhiy yuksalish masalalari markaziy o'rinni egallaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida g'azal janri inson ruhiyatining eng nozik holatlarini ifodalovchi yetakchi badiiy shakllardan biri hisoblanadi. Bu janrda ko'pincha ishq, hijron, visol,

sog‘inch va maftunlik kabi tuyg‘ular badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Alisher Navoiy ijodida esa g‘azal faqat hissiy kechinmalar ifodasi emas, balki chuqur falsafiy mazmun tashuvchi, insonni hayot va ma‘naviyat haqida mushohada yuritishga undovchi badiiy vositadir.

Navoiy g‘azallarida ishq tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi va u oddiy dunyoviy muhabbat doirasidan ancha keng ma‘noda talqin qilinadi. Shoir nazarida ishq insonni hayratga soluvchi, uni o‘z “men”idan chiqishga majbur qiluvchi va ruhiy yuksalishga yetaklovchi kuchdir. Bu ishq orqali inson go‘zallikni anglaydi, estetik zavq oladi va ichki dunyosini boyitadi. Ayniqsa, yor obrazi Navoiy lirikasida ideal go‘zallik va maftunkorlik timsoli sifatida gavdalanadi.

ASOSIY QISM

Alisher Navoiyning “Labing takallum etib so‘zda lol qildir meni” g‘azali badiiy tahlilga boy, obrazlar va ma‘no qatlamlari murakkab bo‘lgan ishqiy lirika namunasidir. Ushbu g‘azalni tahlil qilishda uning har bir baytida yashiringan ma‘no, badiiy vositalar va ruhiy holatlarni alohida yoritish muhim ahamiyatga ega.

G‘azal mazmuni ishqning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra uning inson ichki dunyosiga ta‘sirini ochib beradi. Shu sababli tahlil jarayonida avvalo matndagi asosiy obrazlar — yor, lab, so‘z va lol qolish holatlarining ramziy ma‘nosi aniqlanadi, so‘ngra ularning lirik qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi ochib beriladi va shu o‘rinda g‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Labing takallum etib, so‘zda lol qildi meni,
Ochildi zulfungu oshuftahol qildi meni.*

Alisher Navoiy bu baytda yorning lablari va zulfini tasvirlash orqali uning o‘ta jozibador go‘zalligini ifodalaydi. Birinchi misrada yorning so‘zga kirishi lirik qahramonni hayratga solib, uni “lol” — ya‘ni so‘zsiz holatga tushiradi. Bu ishqning kuchi inson nutqi va aqlini ham to‘xtatib qo‘yishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi misrada esa zulfning ochilishi oshuftahollikni kuchaytiradi, ya‘ni lirik qahramon butunlay maftun va sarosima holatiga tushadi. Bayt ishqning oddiy tuyg‘u emas, balki inson ruhiyatini chuqur larzaga soluvchi kuch ekanini ifodalaydi. Keyingi baytlarda ishqning kuchayib borishi va lirik qahramonning ruhiy holati yanada chuqurlashishini tasvirlaydi:

*Yuzi ko‘rundi, oching emdi zulfi silsilasin,
Ki ul pari yana majnunmisol qildi meni.*

*Ayog‘in o‘pgali boshim yo‘lig‘a yetkurdum,
Fig‘onki, zuldi kibi poymol qildi meni.*

Ikkinchi baytda yorning yuzi ko‘rinishi va zulfning “silsila” sifatida tasvirlanishi ramziy ma‘noga ega. Tasavvufda “zulf” ko‘pincha nafs, dunyoviy bog‘liqlik yoki ilohiy haqiqatni to‘suvcchi pardalar timsoli sifatida talqin qilinadi. Oshiqning “Majnunmisol” bo‘lishi esa uning o‘z aqlidan voz kechib, ishq orqali ma‘naviy holatga kirishini bildiradi. Bu — fano (o‘zlikdan kechish) bosqichiga ishora qiladi.

Uchinchi baytda oshiqning yor oyog‘iga yetib borishga intilishi uning kamtarligi va mutlaq taslim holatini ifodalaydi. Tasavvufiy ma‘noda bu — muridning pir yoki Haq yo‘lida to‘liq

bo'ysunishi ramzidir. “Poymol bo'lish” esa nafsning ezilishi va o'zlikning yo'qolishini anglatadi. Ya'ni oshiq o'z “men”idan voz kechib, ilohiy muhabbat yo'lida sinovlardan o'tadi.

*Qoshi xayolida payvasta baski chektim ranj,
Falak bu g'amda nechukkim hilol qildi meni.*

*Beli g'amida xayol o'ldum ohu afg'ondin,
Bu mo'ya mo'y etib, ul nola nol qildi meni.*

Mazkur baytlarda Navoiy ishqning yanada chuqur, ichki va ruhiy bosqichlarini tasvirleydi. Bu o'rinda ishq faqat tashqi go'zallikka maftunlik emas, balki insonning ichki iztiroblari va ruhiy poklanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi baytda qosh xayoli bilan bog'liq ranj va azob tasviri beriladi. Tasavvufiy ma'noda “qosh” ilohiy tajalli yoki Haqning jilvasi ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Oshiqning bu holatda “ranj chekish”i — nafs va ruh o'rtasidagi kurashni bildiradi. “Hilol” timsoli esa asta-sekin to'lishib boruvchi ma'naviy kamolot yo'lini anglatadi. Demak, bu baytda ishq orqali ruhiy yetilish jarayoni aks etadi.

Beshinchi baytda esa oshiqning “beli g'amida xayol o'lishi” tasviri berilib, u butunlay ichki iztirob va sukut holatiga tushadi. “Nola” va “afg'on”lar esa tasavvufda ko'pincha qalbning Haqqa murojaati, ichki iltijo va ruhiy uyg'onish belgisi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda oshiq o'zini yo'qotib, butun borlig'i bilan ishq holatiga singib ketadi.

Umuman, bu ikki baytda ishqning ruhiy og'riq, sabr va ichki poklanish orqali insonni ma'naviy yuksalishga yetaklashi ifodalangan.

Alisher Navoiy g'azalning so'nggi baytlarida ishq tajribasi yanada falsafiy va yakuniy ma'no kasb etadi. Bu bosqichda oshiqning holati shaxsiy iztirobdan chiqib, taqdir, Haq irodasi va ma'naviy taslimlik g'oyalarga yaqinlashadi:

*Kup og'zima quy adl jomin, ey mug'kim,
Qazo bu shevada bei'tidol qildi meni...*

*Navoiy, anglaki, jurmumcha yuz umidam bor,
Faqiri zohid o'zidek xayol qildi meni.*

Oltinchi baytda “adl jomi” va “mug'” obrazi orqali ilohiy adolat va ruhiy poklanish g'oyasi ifodalanadi. Tasavvufiy talqinda “jomi adl” — Haq tomonidan beriladigan ruhiy muvozanat va haqiqat sharobi ramzi bo'lib, oshiqning undan bahramand bo'lish istagi uning ma'naviy yuksalishga intilishini bildiradi. “Qazo” (taqdir) esa inson irodasidan ustun ilohiy tartib sifatida namoyon bo'lib, oshiqning holatini belgilab beradi. Bu bayt ishq yo'lida inson o'zini to'liq taqdir irodasiga topshirishini ko'rsatadi.

Yettinchi baytda esa Alisher Navoiy o'ziga murojaat qilib, umid va najot g'oyasini ilgari suradi. “Faqiri zohid” obrazi orqali oshiqning kamtarligi va dunyodan voz kechgan holati ifodalanadi. Shu bilan birga, unda umid uchquni saqlanib qoladi — bu tasavvufda “rajo” (umid) maqomi bilan bog'liq. Oshiq o'zini ojiz, lekin Haq marhamatidan umidvor holatda tasvirleydi.

Umuman, bu ikki baytda ishq yo'lining yakuniy bosqichi — taslimlik, ilohiy adolatga bo'ysunish va ruhiy umid holati aks etadi.

XULOSA

Alisher Navoiyning “Labing takallum etib soʻzda lol qildir meni” gʻazali ishqning badiiy-falsafiy va tasavvufiy mohiyatini yuksak darajada ifodalaydi. Gʻazalda lirik qahramonning yor goʻzalligiga maftun boʻlishi, hayratdan boshlab ruhiy iztirob va taslimlik holatlarigacha boʻlgan kechinmalari tasvirlanadi. Bu orqali ishq inson qalbini oʻzgartiruvchi, uni ichki poklanish sari yetaklovchi kuch sifatida namoyon boʻladi.

Asarda qoʻllangan ramziy obrazlar va badiiy vositalar ishqning turli darajalarini ochib berib, gʻazalning estetik va falsafiy qiymatini yanada oshiradi. Umuman, ushbu gʻazal Navoiy ijodida ishqning inson ruhiyatiga chuqur taʼsir etuvchi maʼnaviy hodisa ekanini koʻrsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1989.
2. Alisher Navoiy. Devon. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
3. Erkin Vohidov. Soʻz latofati. — Toshkent: Sharq, 2001.
4. Oʻzbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.
5. Navoiyshunoslik: maqolalar toʻplami. — Toshkent: Fan, 2015.
6. Hamid Sulaymon. Navoiy gʻazaliyoti tahlili. — Toshkent: Fan, 1980.